

Yana Fir'avn qasriga



17:30 / 10.10.2021 2525

Musoning onasi emizishni tugatgach, bolani qasrga qaytardi. U saroyda huddi shahzodalarddek ulg'aydi. Shu bois shohlar va boy-badavlat kimsalar qarshisida esankirash, o'zini yo'qotib qo'yish unga begona edi. Muso Fir'avn va uning ahli qanday nematlar ichida yashayotganiga shaxsan guvoh bo'ldi. Saroy ahlining mana shu to'kin hayoti uchun Bani Isroil baxtsiz hayot kechirar edi.

Fir'avn otlari, mollari to'q yurishi uchun Bani Isroilning qorni nonga to'ymasdi, ularga eshak va hayvondek qarar edilar. Doim qattiq mehnat ostida eziladigan Musoning qavmi o'ta og'ir kun kechirardi. Qavmining qanday azoblar ichida yashayotganini Muso ertayu kech ko'rib tursa-da lom-mim deya olmasdi. Lekin bu narsalar Muso qalbida g'azab-nafrat uyg'otar edi. Axir ular ulug' payg'ambarlar farzandlari-ku?! Bani Isroilning aybi qibtiy (mahalliy millat) bo'lmaganimi!?

Ularning gunohi Kan'ondan kelganligimi!?

Yo'q! Bu gunoh emas!

Yo'q! Bu gunoh emas!

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad